



## OLIJ MAJLISNING INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKILI (OMBUDSMAN)NING SHAKLLANISHI VA FAOLIYAT YO'NALISHLARI

**Qahhorov Ramazon O'ktam o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. Tarix fakulteti.  
Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi yo'nalishi 2-kurs  
magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7571986>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 24<sup>th</sup> January 2023

Online: 26<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*ombudsman, xalqaro pakt, konvensiya, konferensiya, Pentagon vakili. protsessual huquq.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili va uning faoliyat yo'nalishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqola ilmiy asoslar bilan isbotlangan va vakilning vazifasiga atroflicha to'xtalib o'tilgan.*

«Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunning 1-moddasiga binoan, inson huquqlari bo'yicha vakil mansabdor shaxs bo'lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari va vositalarini to'ldiradi. Vakil O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy ongini oshirishga ko'maklashadi.

U o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari va normalariga asoslanadi.

Vakil o'z vakolatlari mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi. Vakil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi.

Vakil lavozimiga nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Vakilni saylash to'g'risidagi qarori palatalarning majlislarida ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakili (Ombudsman) instituti kiritilgan paytdan boshlab, uning faoliyati quyidagi yo'nalishlarda o'tmoqda:

- 1) inson huquqlari sohasidagi qonunlarga rioya qilinishini nazorat etish;
- 2) fuqarolarning shikoyatlari va arizalari bilan ishlash;

- 3) hokimiyat, boshqaruv organlari, sudlar, jamoat birlashmalari bilan hamkorlik;
- 4) axborot tashviqot va tahliliy ishlar;
- 5) xalqaro hamkorlik.

Vakil faoliyati davomida insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etish komissiyasi a'zolari, Oliy Majlis qo'mitalari, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonunlar monitoringi instituti, huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo'yicha boshqa tuzilmalarning vakillari bilan birgalikda Jizzax viloyatida «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida», «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzgan qarorlar va harakatlar ustidan sudga shikoyat berish to'g'risida»gi qonunlarga, Toshkent shahri va viloyatida Mehnat kodeksiga, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkentda «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida «Fuqarolarning nafaqa ta'minoti to'g'risida»gi qonunlarga rioya qilinishini nazorat etish o'tkazildi.

Mamlakatimiz Oliy Majlisi ratifikatsiya qilgan xalqaro shartnomalar va bitimlarning bajarilishini nazorat qilish davomida Vakil tomonidan bir qator vazirliklar va idoralarning 1966-yil 16-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966-yil 16-dekabrda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1984-yil 10-dekabrda qiynash va muomala qilish hamda jazolashning shafqatsiz, noinsoniy yoki qadr-qimmatni poymol qiluvchi boshqa turlariga qarshi konvensiyalarni bajarishlari bo'yicha faoliyatlari tahlil etildi.

Ushbu konvensiyalar va shartnomalar respublika qonunlarini tekshirish natijalari bo'yicha viloyat hokimiyatlari va tegishli tuzilmalar.

Vazirliklar, idoralar, Oliy Sud, jamoat birlashmalariga aniqlangan kamchiliklarni tugatish bo'yicha va qonunlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar jo'natildi.

Ko'rsatilgan davr mobaynida vakilning apparatida Oila, Yer, Uy-joy kodekslari, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida», «Mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar to'g'risida» «Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida» «Advokatlik faoliyat va advokatlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi qonunlarning loyihalari o'rganib chiqildi va ularning sifatini oshirishga qaratilgan takliflar kiritildi.

Vakil tomonidan milliy qonunlarni Oliy Majlisning vakili (Ombudsman) haqidagi qonunlarga moslashtirish taklifi kiritildi. U inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarni doimiy tahlil qilib bormoqda va o'rganmoqda. Inson huquqlarini himoya qilishning davlat ichidagi va xalqaro ma'lumotlar bazasi yaratilgan. Ular fuqarolar huquqini himoya qilishni yanada yaxshilash va milliy qonunlarimizni xalqaro standartlarga moslashtirishning zarurligidan guvohlik bermoqda.

Inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning samarali usuli, Qonunnirtg 10-moddasida ko'rsatilganidek, vakilning apparatiga kelib tushayotgan shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish hamda muntazam tahlil qilishdir. Tahlillardan ko'rinadiki, ko'pincha, fuqarolarning erkinlik va shaxs daxlsizligi, sudgacha va sud paytidagi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan huquqlari buzilmoqda.

Vakil instituti ish boshlagandan beri 10.000 dan ortiq shikoyat olingan. Har uchinchi murojaat fuqarolarning huquqlari va erkinliklarining yaqqol buzilganligini ko'rsatadi. Ular

nazoratga olindi va ko'pchiligi ijobiy hal qilindi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, asosan murojaatlar fuqarolarning protsessual huquqlari buzilganligi ustidan, sudlarning qonuniylik, asoslanganlik va adolatlilik prinsiplariga amal qilmay, hukmlar chiqarganligi ustida bo'layotir. Shu masalalar bo'yicha 2000 ta fuqaro shaxsan qabul qilindi. Vakilning tekshiravi natijalariga ko'ra, O'zbekiston Prokuraturasi va Oliy Sud tomonidan sud qarorlarini bekor qilish bo'yicha 40 ta protest keltirildi hamda jinoiy ishlar qaytadan ko'rib chiqiladigan bo'ldi.

Vakilning turli organlar va jamoat birlashmalari bilan hamkorligi, bir tomondan, qonunlarga amal qilish va inson huquqlarini saqlashning samaradorligini oshirishga, ikkinchi tomondan, fuqarolar huquqini sudda va suddan tashqari himoya qilishning imkoniyatlari, vositalaridan faolroq foydalanishga qaratilgan. Bundan tashqari, inson huquqlariga rioya qilishning mexanizmlarini ta'minlashda davlat va jamiyatning kuchini birlashtirishga qaratilgan.

Vakil va Konstitutsiyaviy sud o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bitim tuzilgan. U inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.

Vakil nodavlat tashkilotlari bilan ham hamkorlikni rivojlantiryapti. Bu inson huquqlari sohasidagi monitoring muammolari bo'yicha, eng ko'p uchraydigan inson huquqlarini buzish turlariga oid obyektiv axborot olish bo'yicha bo'lmoqda. 30 dan oshiq tashkilotlarning vakillaridan so'rovlar olindi, Olingan axborotlar tegishli davlat organlariga yetkazildi.

So'rovlarni tahlil qilish asosida vakilning nodavlat tashkilotlar bilan hamkorligining konsepsiyasi yaratildi. U tegishli nodavlat tashkilotlar vakillarining xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasi qonunlarining bajarilishida ishtirok etishlarini nazarda tutuvchi tadbirlarni ishlab chiqishga imkon berdi. Shuningdek, Vakilning funksiyalarini samaraliroq qilish uchun lining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik konsepsiyasi ishlab chiqilgan, Vakil bu hamkorlik jarayonida muayyan fuqarolarning huquqlari buzilganligi holati bo'yicha materiallarni chop etib boradi.

Vakilning axborot-tashviqot va tahliliy faoliyati inson huquqlari bo'yicha boshqa milliy tuzilmalar bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Bu Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Oliy Majlis huzuridagi amaidagi qonunlar bo'yicha monitoring instituti, Toshkent Davlat yuridik instituti qoshidagi Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi kabilardir.

Vakilning tashviqot faoliyati o'ziga xos. U keng ommani ulaming huquqlari va Ombudsmanning faoliyati, uning inson huquqlarini himoya qilish tizimidagi o'mi bilan tanishtirib boradi.

Jamiyatdagi huquqiy madaniyatni ta'minlashga hissa qo'shish maqsadida Vakilning faoliyati quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- 1) jamiyatni Vakilning vazifalari va funksiyalaridan xabardor qilish;
- 2) inson huquqlari sohasida huquqiy madaniyatni oshirish;
- 3) inson huquqlariga rioya qilishning xususiyatlari to'g'risida xalqaro va respublika konferensiyalarini, seminarlarini o'tkazish;
- 4) inson huquqlari bo'yicha oliy, o'rta maxsus va o'rta o'quv yurtlarida ta'lim dasturlari va kurslarini amalga oshirish;
- 5) mamlakatimizda va xalqaro tashkilotlar tashkil etgan seminarlar, konferensiyalarda

ma'ruzalar va xabarlar bilan chiqish.

O'zbekistonda «O'zbekistonning inson huquqlarini himoya qilish tizimi» seriyasida «O'zbekiston Respublikasining Ombudsmani» nomli risola chop etildi. U vakilning faoliyatidan jamiyatni xabardor qilish

maqsadida, Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi va Qochoqlar ishi bo'yicha oliy komissaming vakili bilan hamkorlikda chiqariladi. Risola ingliz va rus tillarida bo'lib, ushbu instituting yaratilishi tarixi, huquqiy asoslari, funksiyalari va fuqarolarning Ombudsmanga murojaat qilishlari tartibi haqidadir. «Adolat» nashriyotida «Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning Vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunga sharhlar chop etildi. Shuningdek, Vakil Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasiga sharhlaning o'zbek tiliga moslashtirilgan variantini chiqarishda katta ishlar qildi.

Mamlakatimiz mintaqalarida ham ko'p ishlar qilinmoqda. Andijon, Buxoro, Navoiy, Nukus, Zaralshon, Shahrisabzda «Demokratiya va inson huquqlari» mavzusida maxsus seminarlar o'tkazildi. Ular, shuningdek, Konrad Adenauer fondi bilan birgalikda, Olmaliq, Qarshi, Farg'onada bo'lib o'tdi. Ularda huquqni muhofaza qilish organlarining ham inson huquqlari sohasidagi, O'zbekistonda qonunlarning ustuvorligini ta'minlashdagi vazifalari muhokama qilindi.

Ombudsman tomonidan quyidagi tadbirlar ham o'tkazildi: «Ombudsman va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi», «Shaxsning huquqlari va burchlari birligi» (1999-yilning 16-fevralidagi voqealar bo'yicha), oila va mehnat huquqlarini himoya qilish, Vakilning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha sudlov organlari bilan hamkorligi (BMT vakillari ishtirokida) muammolari bo'yicha seminarlar, shuningdek, «Harbiy xizmatchilarning huquqlari va demokratik davlatda ularni ta'minlash» (Pentagon vakili, Bundestagda Harbiylar ishi bo'yicha Ombudsman byurosining rahbari (Germaniya) ishtirokida) mavzularidagi seminarlar.

Perventiv tadbirlarga katta e'tibor berilayotir. Ular mansabdor shaxslar va davlat organlari tomonidan fuqarolarning huquqlari buzilishiga qarshi qaratilgan. Vakil ishtirokida huquqni muhofaza qilish organlarining huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi.

Vakil asta-sekin fuqarolarning arizalarini kompleks tahlil etish tizimini yaratishga o'tmoqda. Axborot tizimini kengaytirish uchun internet tarmog'iga ulanish amalga oshirildi, internetda uch tildagi (o'zbek, rus, ingliz) Ombudsman sahifasi ochildi. YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiya bilan hamkorlikda «Inson huquqlari va axborot texnologiyasi» seminari o'tkazildi.

Ombudsman instituti ish boshlagandan buyon, 100dan ortiq xalqaro tadbirlar o'tkazildi. Vakil, shuningdek, Qizil Xoch xalqaro qo'mitasi, Notijorat huquq bo'yicha xalqaro markaz, Xyuman Rays Voch, Amnesti Interacayshnl va boshqa nodavlat xalqaro tashkilotlar bilan ham faol hamkorlik qilmoqda.

Xorijiy matbuot vositalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Vakilning «BBS», «Amerika ovozi» radiostansiyalarining vakillari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Ombudsman huzurida maslahat kengashi tuzildi. U inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro tashkilotlarning vakillaridan tuzilgan.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakili (Ombudsman) obro'li xalqaro tashkilot bo'lmish - Xalqaro Ombudsman institutining ovoz huquqiga ega a'zovidir. Shuningdek, Buyuk

Britaniya, Latviya, Niderlandiya, Polsha, Ukraina, Shvetsiya davlatlarining Ombudsmanlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konistitytsiyasi
2. Jamiyatda xuquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy Dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgust Qarori . O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi . 1997 y.227 –modda.
3. Oliy Majlisining inson xuquqlari buyicha vakili to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni 1997 y.24 aprel . O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi . 1997 y.102 modda.
4. Inson xuquqlari o'quv qo'llanmasi Toshkent davlat yuridik instituti . O'zbekiston 1997 y.51-57 betlar.
5. Mirenskiy B.A. Provooxranitelniye organi Respubliki O'zbekiston .T.1997 y.

